XALQ DEPUTATLARI FURQAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-avgust VI-79-79-11-164-K/24 Furqat tumani

Furqat tumani mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan shakillangan mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 28-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Furqat tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Furqat tumani hokimligining 2024 yil 17 iyuldagi 02-37/477-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2024 yil ikkinchi chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 111,2 mln.so‘m mablag’lar quyidagicha taqsimlansin:

- “Openbudget.uz” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga 34,0 mln.so‘m;
- tuman hokimligi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida ish haqi xarajatlariga 48,329 mln.so‘m, ajratma uchun 12,082 mln.so‘m, jami 60,411 mln.so‘m;
- xalq deputatlari tuman Kengashi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida ish haqi xarajatlariga 5,403 mln.so‘m, ajratma uchun 1,351 mln.so‘m, jami 6,754 mln.so‘m;
- tuman hokimligiga qo‘riqlash xizmati xarajatlari uchun 10,0 mln.so‘m;

Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo’yilsin.

3. Mazkur qarorning ijrositi ta’minlash tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Axmedovga, nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi M.Valiev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Furqat tumani Kengashining 79-sessiyasiga raislik qiluvchi

JURAYEV IFTIXORJON ABDUMUXTOROVICH